



TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH
“KOMPLAENS NAZORAT”
TIZIMINI BOSHQARISH BO‘LIMI TOMONIDAN
2024-2025 O‘QUV YILIDA
AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR
HISOBOTI

- Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida 2024-2025 o‘quv yili mobaynida “Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish” bo‘limi tomonidan korrupsiyaviy holatlar, xavf-xatarlar va ularni barvaqt bartaraf etish yuzasidan maqsadli ishlar amalga oshirildi.
- Bu borada korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida olib borilayotgan ishlarning samaradorligini oshirish va faoliyatda huquqiy asoslangan jarayonlarni mustahkamlash maqsadida rektor maslahatchisi, auditor, yuristkonsult bilan birgalikda ishlarni olib borilishi ta‘minlanib, faoliyat davomida korrupsion holatlarni oldini olish borasida ishlar tashkil qilindi.
- Jumladan, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 6-sentabrdagi 03/23-2602-sonli xati ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan Adliya vazirligi va Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan uslubiy qo‘llanma, uslubiy tavsiyalar va illyustrativ tarqatma materiallarini universitetning barcha rahbar xodimlari e‘tiboriga yetkazildi, shuningdek, illyustrativ tarqatma materiallardan ish stolida eslatma sifatida foydalanishlari uchun nashr qilib tarqatildi.

- Joriy yilning 5-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida bo‘lib o‘tgan Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining yig‘ilishida belgilangan vazifalar doirasida mamlakatimizda korrupsiyadan holi muhitni shakllantirish jarayonini izchil davom ettirish, shuningdek, vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar rahbarlarining bu boradagi shaxsiy mas’uliyatini oshirish yuzasidan ustuvor vazifalar belgilab olindi.
- Mazkur yo‘nalishdagi ishlarni tizimli ravishda tashkil etish maqsadida iqtisodiy o‘qishlar o‘tkazilishi belgilandi.
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi binosida vazirlik markaziy apparati hamda tizim tashkilotlari xodimlarining huquqiy va iqtisodiy bilimlarini oshirish maqsadida iqtisodiy o‘qish doirasida tajribali mutaxassislar ishtirokida oflayn va onlayn formatda seminar-trening tashkil etildi.
- Zoom platformasi orqali o‘tkazilgan seminar-treningda universitet vakillari, Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi xodimlari shtirok etishdi.



Universitetning rasmiy sayti

Universitetning rasmiy sayti (<https://tsuos.uz/komplaens-nazorat-tizimini-boshqarish-bolimi/>, <https://tsuos.uz/korrupsiyaga-qarshi-kurash/>) va “telegram” (<https://t.me/tsuos>) kanallari orqali bo‘lim tomonidan o‘tkazilayotgan profilaktik va boshqa tadbirlar haqida ma‘lumotlar yoritib borildi. Shu bilan birga korrupsiyaga oid noqonuniy xatti harakatlarni aniqlash maqsadida https://t.me/tsuosanticorruption_bot telegramm boti ishga tushirilgan va universitet xodimlari va talabalariga rasman e‘lon qilingan.



- Universitetning barcha professor-o‘qituvchilarini, o‘quv jarayonga bog‘liq xodimlarini va talabalarini universitetning ichki mehnat tartib qoidalari, manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf qilish va odob-axloq qoidalari bilan tanishtirildi.
- Talabalar bilimini baholashning zamonaviy, shaffof va adolatli usuli, ya‘ni muayyan fandan dars bergan pedagogning yakuniy nazorat jarayonlaridagi ishtirokini istisno etadigan tizim joriy etildi.
- Universitetning kadrlar bo‘limi bilan hamkorlikda, universitetga ishga kiruvchi xodimlar va professor-o‘qituvchilar lavozimlariga ishga talabgorlar bilan Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 369-sonli buyrug‘ining “Ishga qabul qilish bo‘yicha “YO‘RIQNOMA”si asosida tegishli suxbat va o‘rganishlar o‘tkazildi. Suhbat chog‘ida ishga qabul qilinayotganlar yoki boshqa lavozimga o‘tkazilayotgan xodimlar bilan yakka tartibda korrupsiya oqibatlari bo‘yicha tushuntirish ishlari qo‘yilgan majburiyatlari va talablari bo‘yicha o‘tkazilib, “Komplaens nazorati” tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar to‘plami bilan tanishtirilib hamda kafolat xatlari olinishi ta‘minlandi.



- Universitetga professor-o'qituvchilarni ishga qabul qilish, lavozimlarga tayinlash tegishli Oliy maktablarning kengaytirilgan ochiq majlisida pedagog kadrlar va jamoatchilik kengashining a'zolari ishtirokida "ochiq-sinov" darsini o'tkazish natijalari bo'yicha ushbu majlisning tavsiyasiga ko'ra amalga oshiriladi. Sinov darsidan muvafaqqiyatli o'tgan professor-o'qituvchilarni hujjatlari tegishli bo'limlardan imzolangan holda rasmiylashtiriladi. Bo'limlarga ishga qabul qilishda esa tegishli bo'limlar boshliqlari va mas'ul prorektorlar tomonidan hujjatlari ko'rib chiqiladi, bo'limdagi faoliyatdan xabardorligi ish jarayoni bilish darajasiga qarab ochiq tanlov asosida amalga oshirildi.
- Universitetda kontragentlarni tekshirish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 22 oktyabrdagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida Komplaens nazorat tizimini joriy etish va korrupsiyaga qarshi kurashishni takomillashtirish to'g'risida"gi 443 sonli bo'yruq'ining 8-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida kontragentlarni tekshirish bo'yicha" yo'riqnomaga asosan amalga oshirilmoqda.



Davlat xaridlari sohasida shaffoflik va qonuniylikni ta'minlash, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida universitetda tender tanlovlari komissiyasida ishtirok etish va mazkur yunalishda kontragentlarning ishonchliligini tekshirish xamda ta'lim ob'ektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlashda byudjet mablaglaridan maqsadli foydalanish nazoratga olingan. Joriy yilda xaridlar bo'yicha tuzilgan qiymati **601526313.2** so'mlik **215ta** shartnoma ustidan monitoring qilish ishlari olib borildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli qarori 6- va 7-bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida universitetda jamoatchilik nazoratini samarali joriy etish maqsadida talabalar, ota-onalar, Yoshlar ittifoqining oliy ta'lim muassasalaridagi faollari, kadrlar buyurtmachilari, professor-o'qituvchilar hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat jamoatchilik kengashi tashkil etilgan.

Joriy 2024-2025 o'quv yili mobaynida Korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatni shakllantirish maqsadida universitet talabalari, professor-o'qituvchilari va xodimlari orasida jami 11 ta profilaktik targ'ibot – tashviqot tadbirlari, jumladan, 2 ta seminar, 9 ta davra suhbatlari o'tkazildi. Tadbirlarda jami bo'lib 60 nafar professor-o'qituvchi va 550 nafar talabalar qatnashdi.



- Universitetning barcha institut va fakultetlarida direktorlar, dekanlar, dekan o‘rinbosarlari, Oliy maktab boshliqlari, professor-o‘qituvchilar, tyutorlar hamda texnik xodimlariga universitetning “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosati” hamda “Korrupsiyaga qarshi kurashish va Odob-axloq qoidalari”ning mazmun mohiyatlari tushuntirildi. Shuningdek, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, barham berish, ularga olib keluvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilgan taqdirda javobgarlikni muqarrarligi to‘g‘risida tushuntirish ishlari olib borildi.
- O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishining 2024-yil 26-yanvardagi 12-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining “Korrupsiyaga qarshi ta‘lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi (**GRACE**) dasturi doirasida o‘qitish amaliyotini joriy etishni tashkil etish to‘g‘risida” 2024-yil 24-sentabrdagi 355-son burug‘i 5-bandiga muvofiq, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabalarini mavjud o‘quv dasturlari bilan birgalikda o‘qitish hamda mavzuga oid darsdan tashqari mashg‘ulotlar, seminar-treninglar tashkil etish uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan ishlab chiqilgan dastur havolasi orqali o‘qitish tavsiya etildi.
(<https://virtual.proacademy.uz/home-university-about/>)



2024-2025 o‘quv yili mobaynida “Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tomonidan universitetda:

- ✓ 2024-yilning sentabr oyida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 1-kurs talabalari orasida “Yoshlar korrupsiyaga “yo‘q” deydi deb nomlangan turkum davra suhbatlari o‘tkazildi.
- ✓ 2024-yilning oktabr oyida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabalari orasida “Yoshlar korrupsiyaga “yo‘q” deydi”, “Biz korrupsiyaga qarshimiz”, “Korrupsiyaga qarshi birga kurashamiz”, “Korrupsiya adolat kushandasi” mavzularida fleshmob, heshteg va chelenjlar o‘tkazildi.
- ✓ 2024-yilning 19-noyabr kuni “Eng yaxshi insholar” tanlovi o‘tkazildi. Tanlovda 1-o‘rin Xudoyorova Marjona Navro‘z qiziga, 2-o‘rin Qahhorjonova Yodgoraxon Davron qiziga va 3-o‘rin Baxromova Nurdona Obidovnaga nasib etdi.
- ✓ 2024-yilning 25-noyabr kuni “9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlangan “Aksilkorrupsiya oyligi” doirasida “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi” mavzusida “Eng yaxshi rasmlar” ko‘rik tanlovi bo‘lib o‘tdi. Unda Hakamlar hay‘atining qarori va universitetning rasmiy telegram kanalida o‘tkazilgan rasmlarga onlayn ovoz berish natijalariga ko‘ra “Eng yaxshi rasmlar” 1-o‘rin - Matigullina Ilyanaga (1-kurs) va 2-o‘rin - Maxmudova Oydiyoyga (1-kurs) berildi.



- ✓ **2024-yilning 9-dekabr** Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan joriy yilning 27-noyabr kuni talaba-yoshlar ishtirokida “Korrupsiya qarshi birgalikda kurashamiz” mavzusida uchrashuv tashkil etildi. Mazkur uchrashuvda korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i E.Matchanov va bo‘lim bosh mutaxassisi X.Ostonov o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etdilar.
- ✓ **2024-yilning 5-dekabr** kuni Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 29-noyabrdagi 445-son buyrug‘iga muvofiq “9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish” kuniga bag‘ishlangan seminarda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i E.Matchanov va bo‘lim bosh mutaxassisi X.Ostonov ishtirok etdilar.
- ✓ **2024-yil 11-dekabr** kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida
“9 dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlab universitet faoliyatining ochiqligini ta’minlash, korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish, ularni bartaraf etish kabi masalalarga bag‘ishlangan “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri o‘tkazildi.



- ✓ **2025-yilning yanvar –fevral** oyida “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i E.Matchanov vazirlik tomonidan tashkil etilgan 36 va 16 soatlik 4ta onlayn kurslarda ishtirok etib tegishli sertifikatlarga ega bo‘ldi.



- ✓ **2025-yilning may oyida** Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektorining 114-UM sonli buyrug‘iga muvofiq “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi” mavzusida “Eng yaxshi esselar” tanlovi o‘tkazildi. “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi” mavzusida “Eng yaxshi esselar” tanlovida **1-o‘rin** – Oktyabrova Ruhshona Olimboy qiziga (Sharq xalqlari va adabiyoti instituti 1-kurs), **2-o‘rin** – To‘raqulov Dilmurod Muzaffar o‘g‘liga (Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti 1-kurs) va **3-o‘rin** – Nasriddinova Yoqutxon Ilxomjon qiziga (Sharq xalqlari va adabiyoti instituti 4-kurs) berildi. Tanlov nizomiga muvofiq va 1-o‘rin egasi tanlovning ikkinchi xududiy bosqichiga tavsifiya etildi.
- ✓ **2024-yil noyabr oyidan 2025-yilning iyun oyiga** qadar universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tomonidan talabalarning universitetdagi korrupsiya holati bo‘yicha fikrlarini o‘rganish maqsadida talabalar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma natijalari yuzasidan universitet rahbariyatiga taklif kiritildi.



Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tomonidan 2024-yilning sentabr oyidan 2025-yilning iyun oyiga qadar jami:

10ta buyruq loyihasi,

80dan oshiq ma’limotnoma,

11ta turli tadbirlar,

3ta so’rovnoma (6100 nafar talabadan 3100qamrab olingan),

10dan ziyod saytga qo‘yilgan kontentlar,

Maxsus malaka oshirish kurslarda qo‘lga kiritilgan sertifikatlar soni – 5ta.

2024-2025 o‘quv yili davomida Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida manfaatlar to‘qnashuvi aniqlanmadi.

2024-2025 o‘quv yili davomida 168 nafar ishga qabul qilingan professor-o‘qituvchi, pedagog va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar bilan mazkur tegishli tartibda profilaktik suhbatlar o‘tkazildi.

2024-2025 o‘quv yili Yozgi semestr yakuni bo‘yicha universitetida talabalar o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida 1marta yozma va 2 marotaba onlay anonim so‘rov tadbirlari o‘tkazildi. Ushbu tadbirlarda jami **3100** nafar talabalar ishtirok etdi. Anonim-so‘rov natijalari tahlil va muhokama qilinib, Odob-axloq va ichki mehnat tartib qoidalarini buzganlik holatlari 2024-2025 o‘quv yili davomida kuzatilmadi.



- Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida Oliy ta'lim sohasida korrupsiya xavfini kamaytirish yuzasidan 2024-2025 yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalar ijrosi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlar universitetning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanallariga muntazam joylashtirib borilmoqda.

Havola:

- <https://tsuos.uz/korrupsiyaga-qarshi-kurash/>
- <https://tsuos.uz/wp-content/uploads/2021/08/1-1.pdf>
- <https://tsuos.uz/wp-content/uploads/2021/08/2-1.pdf>
- <https://t.me/tsuos/16973>
- <https://t.me/tsuos/16970>
-
-
-

Korrupsiyaga qarshi kurashish
"Komplaens nazorat" tizimini
boshqarish bo'limi boshlig'i

E.Matchanov